




## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyul)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5533,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 83,9 % ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 5,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 3,3 martaga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining - 39,1 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 3,7 % ga pasayishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21,3 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4643,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,9 % ini tashkil etdi.





### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,8 % ni (2019- yil yanvar-iyul oylarida - 4,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,3 % (6,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 11,1 % (10,6 %) va quyi texnologiyalisi - 80,8 % (78,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,9 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,0 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 %), mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 6,9 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,4 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 35,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 1,9 % (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,7 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>4643,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1121,4	24,2
Ichimliklar ishlab chiqarish	204,8	4,4
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1342,4	28,9
Kiyim ishlab chiqarish	803,2	17,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	60,9	1,3
Yog` och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	12,0	0,3
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	23,9	0,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	4,9	0,1
Koks va neftni qayta ishslash mahsulotlari ishlab chiqarish	5,1	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	33,4	0,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	125,6	2,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	70,2	1,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	253,7	5,5
Metallurgiya sanoati	22,3	0,5
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	160,8	3,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	5,6	0,1
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	166,4	3,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	28,2	0,6
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	9,7	0,2
Boshqa transport uchkunalari ishlab chiqarish	7,3	0,2
Mebel ishlab chiqarish	71,3	1,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	105,5	2,3
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	4,5	0,1



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyul oylari davomida viloyatda ishlab chiqaradigan sanoatda 23,3 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 51,9 % ga o'sgan), 74,9 ming tonna un (6,3 %), 10,9 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (50,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	15,4	23,3	7,9
Aroq – ming litr 100 % spirit	233,6	212,0	-21,6
Konyak spiriti – ming litr 100 % spirit	29,2	15,1	-44,1
Vino, ming litr	871,0	366,4	-504,6
Un, ming tonna	70,4	74,9	4,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,2	10,9	3,7



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 821,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,8 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,3 martaga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s		2 729,3	2 729,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	47,5	56,1	8,6



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-iyul	2020- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	19,6	25,3	5,7
Oqava suvlarni shlami, mlrd. so'm	2,2	2,6	0,4
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	11,3	13,9	2,6
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	2,3	-	-2,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 29,1 % ga, oqava suvlarni shlami 18,2 % ga hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 23,0 % ga oshganligi kuzatildi.



### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3109,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 56,2 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyul oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,6 % dan 63,2 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 0,7 % (2019- yil yanvar-iyul oylarida 1,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shaharga to'g'ri kelib, 41,6 % ni, shuningdek, Namangan tumani 11,6 % ni, Mingbuloq tumani 8,6 % ni, Uchqo'rg'on tumani 7,0 % ni, To'raqo'rg'on tumani 6,0 % ni hamda Kosonsoy tumani 5,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (105,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich To'raqo'rg'on (126,9 %), Norin (117,5 %), Uchqo'rg'on (117,3 %), Chortoq

(114,9 %), Pop (105,1 %), Kosonsoy (103,4 %), Mingbuloq (7,1 m) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>3109,9</b>	<b>100,0</b>	<b>105,8</b>
Namangan shahar	1293,7	41,6	94,0
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	268,3	8,6	7,1 m
Kosonsoy	174,7	5,6	103,4
Namangan t	359,7	11,6	91,3
Norin	50,8	1,6	117,5
Pop	149,9	4,8	105,1
To'raqo'rg'on	186,4	6,0	126,9
Uychi	128,2	4,1	78,2
Uchqo'rg'on	217,1	7,0	117,3
Chortoq	76,6	2,5	114,9
Chust	123,8	4,0	94,6
Yangiqo'rg'on	80,7	2,6	97,4



**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1188,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-iyul mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>5533,3</b>	<b>106,5</b>
Namangan shahar	2053,1	98,2
Mingbuloq	360,9	111,3
Kosonsoy	195,0	100,5
Namangan t	488,5	105,4
Norin	186,4	145,7
Pop	263,2	105,3
To'raqo'rg'on	805,8	105,1
Uychi	321,5	89,3
Uchqo'rg'on	440,4	113,6
Chortoq	90,0	104,2
Chust	245,0	107,5
Yangiyo'rg'on	83,5	96,8



## Viloyat ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 37,1 % ulushini), To`raqo`rg`on (14,6 %), Namangan (8,8 %), Uchqo'rg'on (8,0 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng kam ulush Yangiyo`rg`on (1,5 %), Chortoq (1,6 ) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlarning ishlab salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Norin (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 145,7 %), Uchqo'rg'on (113,6 %), Mingbuloq (111,3 %), Chust (107,5 %) hamda Namangan (105,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi  
(2019-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da)**





**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati  
(2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da)**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Mingbuloq (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 7,1 marta), To'raqo'rg'on (126,9 %), Uchqo'rg'on (117,3 %), Norin (117,5 %), Chortoq (114,9 %), Pop (105,1 %), Kosonsoy (103,4 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

Viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmning 41,6 % ulushini), Namangan (11,6 %), Mingbuloq (8,6 %), Uchqo`rg'on (7,0 %), To'raqo`rg'on (6,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng kam ulush Norin (1,6 %), Chortoq (2,5 %), Yangiqo'rg'on (2,6 %), tumanlariga to'g'ri keladi.



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar-iyul oylarida, ming so'm)**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqlanishi tahlili To'raqo'rg'on tumani (3559,1 ming so'm), Namangan shahrida (3262,0 ming so'm), Mingbuloq tumani (2857,2 ming so'm), Namangan tumani (2723,2 ming so'm) va Uchqo'rg'on (2559,1 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1960,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (382,9 ming so'm), Chortoq (451,8 ming so'm), Chust (922,1 ming so'm), Kosonsoy (931,4 ming so'm) va Norin (1137,2 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoxda.

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
<b>Viloyat jami</b>	<b>1960,2</b>	<b>1101,7</b>
Namangan shahar	3262,0	2055,4
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	2857,2	2124,4
Kosonsoy	931,4	834,5
Namangan t	2723,2	2005,1
Norin	1137,2	310,1
Pop	1197,4	682,1
To'raqo'rg'on	3559,1	823,3
Uychi	1507,9	601,2
Uchqo'rg'on	2559,1	1261,2
Chortoq	451,8	384,7
Chust	922,1	465,8
Yangiqo'rg'on	382,9	370,2


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1101,7 ming so'm bo'lgani holda Mingbuloq tumanida 2124,4 ming so'mni, Namangan shahrida 2055,4 ming so'mni, Namangan tumanida 2005,1 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 1261,2 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi bo'yicha eng past ko'rsatkich esa Norin (310,1 ming so'm), Yangiqo'rg'on (370,2 ming so'm), Chortoq (384,7 ming so'm) va Chust (465,8 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020- yil yanvar-iyul oylarida, % da)

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2540,9 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 45,9 % tashkil etmoqda.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,4 %), va Chust (66,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush Mingbuloq (12,2 %), To'raqo'rg'on (16,7 %), Uchqo'rg'on (20,3 %), Norin (24,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2020-yil 1- avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6019 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2423 tasi Namangan shahrida, 464 tasi Uychi, 457 tasi Namangan, 447 tasi Chust, 407 tasi Kosonsoy, 399 tasi To'raqo'rg'on, 269 tasi Norin, 267 tasi Uchqo'rg'on, 254 tasi Yangiqo'rg'on, 236 tasi Pop, 235 tasi Chortoq va 161 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.




2020- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 855 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan 46,2 % Namangan shahri, Uychi, Namangan tumanlariga to'g'ri keladi.



## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini (2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalarini joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 423 ta), Uychi (464 ta), Namangan (457 ta), Chust (447 ta), Kosonsoy (407 ta), To`raqo`rg`on (399 ta) tumanlari qayd etildi.



2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalarini joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (161 ta), Chortoq (235 ta), Pop (236 ta), Yangiqo`rg`on (254 ta), Uchqo`rg`on (267 ta), hamda Norin (269 ta) tumanlari qayd etildi.

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (69) 227-84-80